

**«Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi» fanining  
2021/2022o'quv yili uchun mo'ljallangan  
SILLABUS**

Fanning qisqacha tavsifi						
<b>OTMning nomi va joylashgan manzili:</b>	Guliston davlat universiteti		Guliston shahar 4-mavze			
<b>Kafedra:</b>	“Jismoniy madaniyat” fakulteti tarkibida		Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasи			
<b>Ta'lim sohasi va yo'nalishi:</b>	5112000 Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi					
<b>Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:</b>	Taniberdiev A.A.	e-mail:	a.taniberdiev@mail.ru			
<b>Dars vaqtি va joyi:</b>	__-bino __auditoriya	<b>Kursning davomiyligi:</b>	02.09.2021- 20.06.2022			
<b>Shaxsiy jadval asosida ishslash vaqtি:</b>	Chorshanba, juma va shanba kunlari 10.00 dan 12.00 gacha					
<b>Auditoriya soatlari</b>						
<b>5 semestrda fanga ajratilgan soatlar</b>						
<b>5 semestrda</b>						
<b>Ma'ruza:</b>	8	<b>Amaliy va seminar</b>	60 (am), 8 (sem)			
<b>Mustaqil ta'lim:</b>			61			
<b>6 semestrda</b>						
<b>Ma'ruza:</b>	4	<b>Amaliy va seminar</b>	16 (am), 6 (sem)			
<b>Mustaqil ta'lim:</b>			60			
<b>Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):</b>	“Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”, “jismoniy tarbiya gigienasi va sport tibbiyoti”, “jismoniy mashqlar fiziologiyasi va biomexanikasi”, “gimnastika va uni o'qitish metodikasi”, “milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi”, “harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi”, “sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi”, “jismoniy madaniyat tarixi va sportni boshqarish”, “suzish va uni o'qitish metodikasi”, “sport psixologiyasi”, “jismoniy madaniyatni o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish”					
Fanning mazmuni						
<b>Fanning dolzarbliyi va qisqacha mazmuni:</b>	Mazkur fan yuzasidan jismoniy tarbiya darslarida yengil atletikani kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, turkumlari, tasnifi, turlarining texnikasi tahlili, mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish metodlari haqida ma'lumot berish va turli sanalarga bag'ishlangan yengil atletika musobaqalarini o'tkazish, hakamlik qilishga oid amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Fanni o'qitishdan maqsad – Oliy ta'lim muassasi talabalarining yengil atletika fani bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarining shakllantirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, hayotning turli jabhalarida yengil atletika vositalaridan					

	<p>samarali foydalanish. Yengil atletikaning rivojlanish tarixi haqida ma`lumot berish, talabalarni yengil atletika sport turining texnikasi bilan tanishtirish, ularni yengil atletika bo'yicha musobaqalar o'tkazishda hakamlik qilish qoidalarini o'rgatish, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va barkamol avlodni tarbiyalashga mos bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'qitishning faol uslublaridan foydalangan holda nazariy bilim beriladi, amaliy mashg'ulotlarda esa ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida egallangan bilimlarni amalda bajarib, ko'nikma va malakalari shakllantiriladi.</p>
<b>Talabalar uchun talablar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- yengil atletika va uni o'qitish metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari;</li> <li>- yengil atletika va uning turlari rivojlanishining tarixiy tavsifi;</li> <li>- O'zbekistonning jismoniy tarbiya tizimida yengil atletikaning o'rni; yengil atletika bo'limlari va ularning turkumlanishi <b>haqida bilimlarga ega bo'lishi kerak.</b></li> <li>- yengil atletika turlari texnikasini o'rgatish;</li> <li>- yengil atletika bilan shug'ullantirishda umumiy rivojlantiruvchi hamda maxsus mashqlarini bajarishni o'rgatish;</li> <li>- yengil atletika bilan shug'ullantirish va uni o'rgatish asoslari;</li> <li>- yengil atletika mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodlarni o'rgatish;</li> <li>- ta'lim muassasalarida yengil atletika mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish;</li> <li>- sportcha yurish texnikasini o'rgatish metodikasi;</li> <li>- yugurish turlari texnikasini o'rgatish metodikasi;</li> <li>- sakrash turlari texnikasini o'rgatish metodikasi;</li> <li>- uloqtirish turlari texnikasini o'rgatish metodikasi;</li> <li>- ko'p kurash turlari texnikasini o'rgatish metodikasini <b>haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.</b></li> <li>- yengil atletika bo'yicha o'quv ishlarini tashkil qilish, rejalahtirish va hisobini yuritish;</li> <li>- yengil atletika bo'yicha sport inshootlari, jihozlari va ularni ishlatish;</li> <li>- yengil atletika bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish, musobaqalardagi hujjatlar va hakamlik ishi <b>haqida malakalarga ega bo'lishi kerak.</b></li> </ul>
<b>Elektron pochta orqali munosabatlар tartibi</b>	<p>Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqt soat 18.00 dan 20.00 gacha</p>